

TASVIRIY SAN'ATDA HAJM, FAZO VA MATERIALLIK TUSHUNCHALARI (RANGTASVIR, QALAMTASVIR)

Turabekova Chexroz Zubaydulla qizi

*Navoiy davlat universiteti .San'at va
sport fakulteti 3- bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar. Bobonazarov Sherali Ulug'murodovich
katta o'qituvchi. (tel: 91.331 89 60)

Annotatsiya: Hajmdor har qanday buyum nafaqat yorug'-soyada, balki atrofidagi turli ranglar ta'sirida ham o'z rangini o'zgartirishi tabiiy. Yorug'lik, yarimsoya, shaxsiy soya, reflekslar, bularning barchasi turli ranglar tusiga ega. Har bir buyumning yoritilgan qismi ma'lum nurlarni o'ziga qabul qiladi va ma'lum bir o'zgacha tusni hosil qiladi. Biz ko'rib turgan jismlar va joylar fazoviy muhitda (manzarada) perspektiva qonun- qoidalariga amal qilmay tasvirlanadegan bo'lsa, xavo perspektivasidagi rangli va tusli tasvir elementlari fazoni mukammal ko'rsatib berishga ojizlik qiladi.

Kalit so'zlr: blik- shu'la, refleks, silindr, konus, prizma, kub, shar, surat tekisligi, materiallilik, hajm, fazo fon (zamin).

Har bir rassom g'oyasi turli xil tasviriy vositalar orqali namoyon bo'ladi, ular hajm, moddiylik, fazo va ranglar majmuasidir. Shuning uchun ham birinchi navbatda rangtasvirni oddiy haqqoniy tili, nazariy asoslari va amaliy xususiyatlari o'rganiladi. Har bir buyumning fazoviy tekislikdagi uch o'lchamli tasviri, eng avvalo perspektivaning va konstruktiv qurilishini to'g'ri hisobga olgan holda amalga oshirilish lozim.

Ijodiy ish jarayonida har bir qo'yilmadagi fon (zamin) muhim ahamiyat kasb etadi. U turli rang va och to'qligi bo'yicha, kontrast kuchi bilan narsalarni idrok etishga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatadi. Narsalarning yarimsoya va soyali tomonlari och fonda sezilmay qolish ehtimoli kuchli bo'ladi. Nisbatan to'q fonda narsalar o'zining yorug'lik sifatlarini ko'proq namoyish etaoladi. Fonning tusi och va to'q narsalar orasida o'rtacha bo'lishi, rang jihatdan silliq va ko'zga yaqqol ko'rinmasligi naturaning muvaffaqiyatli tasvirlanishiga yordam beradi.

Buyumlarning hajmini tasvirlashda mo'yqalam yordamida talab etilganidek bajarib ko'rsata olish juda zarur. Turli tuman hajmga ega bo'lgan buyumlar tekis yoki notekis satxga ega, ularga tushayotgan yorug'lik ham har-xil (yorqin, o'tkir, yoki xira) bo'lishi mumkin. Buyumlarga tushayotgan yorug'lik nuri darajasi, yorug'lik tushayotgan joyning qanchalik uzoq yoki yaqin masofasida bo'lishiga ham qisman bog'liqdir.

Tushayotgan yorug'lik kuchi buyumning fakturasi (materialliligi) va rangiga ham bog'liq bo'ladi: agarda buyum sirti g'adir-budir bo'lsa yaltiroqlikni o'zida xiraroq aks ettiradi, yaltiroq buyum (niklli, chinni) larda yorug'lik kuchi yuqori bo'ladi. Tasvirlanayotgan buyumning rangi to'q tusda bo'lsa, u yorug'likni o'ziga yutib, nurni kam aks ettiradi.

Odatda tasvirlashning dastlabki saboqlarini egallashda gipsli geometrik jismlardan boshlanadi. Bular (silindr, konus, prizma, kub, shar,) kundalik turmushimizda uchraydigan barcha buyumlar asosi mujassamlashgan. Biror-bir buyumni chizishga kirishishdan avval, uning asosiy o'ziga xos belgilarini tushunish, o'rganish zarur bo'ladi.

Har bir shaklning hajmdorligi va yorug'-soyasi tabiiy sharoitdagi yorug'likda aniq-yaxshi ko'rinadi, shakllarni hajmini aniq ko'rsatish uchun qo'yiladigan yorug'lik manbai yon tomondan yaqinroq qilib tushiriladi, shaklning soya tomoniga esa yorqinroq mato qo'yilishi tasvirni yaqqol ko'rinishiga olib keladi.

Yoritilgan gips kub va piramidada yorug'-soyani taqsimlanishi turlicha bo'ladi. Chap tomondan tushayotgan yorug'lik nuri kub va piramidaning qirralarini turlicha yoritadi. Yorug'lik manbaiga yaqin bo'lgan qirra nisbatan yorishadi, qolganlari esa xiralashib boradi.

Amaliy ish jarayonida yorug'-soyani sinchiklab tahlil etish, taqqoslash, ishni samarali yakunlanishiga zamin yaratadi. Hajmga ega bo'lgan har qanday buyum nafaqat yorug'-soyada, balki atrofidagi turli ranglar ta'sirida ham o'z rangini o'zgartirishi mumkin. Yorug'lik, yarimsoya, shaxsiy soya, reflekslar, turli ranglar tusiga ega. Har bir buyumning yoritilgan qismi (rang) ma'lum nurlarni o'ziga qabul qilib, ma'lum bir tusni hosil qiladi.

Quyosh nurida buyumlardagi shaxsiy va tushayotgan soyalarni turli tuslarini ko'ramiz, biroq bu yerda atrofdagi jismlardan taralayotgan reflekslar sababli iliq tuslarni kuproq ko'rishimiz ham mumkin. Bizga ma'lumki buyumdan tushayotgan tushuvch va shaxsiy soyalar atrof muhitdagi buyumlarning reflekslari bilan bog'liq bo'ladi. To'g'ri ishlangan reflekslar shakl hajmini ifodalashga, yorug' muhitning buyumlar orasidagi rang-barang mutanosiblikning ko'rsatilishiga yordam beradi. Refleksning kuchi, tasvirlanayotgan buyumning moddiy jihatiga (xira, yaltiroq, shishali) hamda yaqin atrofdagi buyumlarning yorqinligiga ham bog'liqdir. G'adir-budir, xira jismlarga nisbatan silliq, yaltiroq jismlar kuchli aks etuvchi va rangli blik-shu'la hamda reflekslarga boy bo'ladi.

Tasvir tekisligidagi fazo huddi jismlarni hajmini tasvirlashdagi kabi qalamtasvir perspektivasini to'g'ri qurish bilan ifodalanadi. Agarda jismlar va joylar fazoviy muhitda (manzarada) perspektiva qonun - qoidalariga amal qilmay tasvirlanadegan bo'lsa, xavo perspektivasidagi rangli va tusli tasvir elementlari fazoni mukammal ko'rsatib berishga ojizlik qiladi.

Har bir rassom uchun borliq - fazoni tasvirlashda narsalarni uzoqlashgan holatdagi rang va tus o'zgarish qonuniyatlariga ma'lum darajada amal qilib tasvirlash (havo perspektivasi) maqsadga muvofiq bo'ladi. Oraliq masofaga qarab buyumlarning perspektiv kattaligi o'zgarganligi singari, uzoqlashgan sari uning rangi ham o'zgarib ko'rinadi. Masofa bizdan uzoqlashgan sari ranglarning yorqinligi susayadi, uzoqdagi daraxtlarning ranglari yaqindagiga nisbatan xiralashib boradi. Masofaga bog'liq holda tus ham yorug'lik ham o'zgaradi. Shu bilan birga bizning qarashimiz va uzoqdagi jism orasidagi xira shaffof havo ko'pincha uzoqlashgan jismlardagi ranglar bilan qo'shilib, jismlarga ko'kimtir tus beradi va natijada soyalarini ochartirib ko'rsatadi.

Shunday qilib kuzatuvchidan uzoqlashganda barcha ranglar o'z yorqinligini yo'qotib, havorang yoki ko'kimtir tusga kiradi, soyalari ocharib boradi, bunda rang va tusning farqlari kamayadi, qarama-qarshi ranglar kuchsizlanadi, jismlarning hajmi o'z aniqligini yo'qotadi. Buni biz chiziqli va havo perspektivasi deb ham ataymiz.

Uzoqlashish va yorug'likka bog'liq holda, daraxtlarning yashil- sarg'ish rangidagi o'ta nozik o'zgarishlarni rus rassomi I.I.Levitanning "Oltin kuz" asarida ko'rishimiz mumkin. Yaqindan ko'rinayotgan o't-o'lanlar va daraxtlarning yorqin issiq qizg'ish rangdan, uzoqlashgan sari sovuq kulrang-havorang rangga asta sekinlik bilan o'tishini sezish qiyin emas. Rassomning ushbu asarida fazo o'ta ravon chuqur ichkariga kirib ketgandek tasavvur hosil qiladi, asardani kuzatsak kuz havosi ufurib turgandek gyo. Ushbi asarni tahlil qilar ekanmiz, rassom fazoviy perspektivani nihoyatda ustalik bilan mohirona tasvirlay olganligini guvohi bo'lamiz. Rang buyumning fazoviy joylashuvi, materialliligi va aniq shaklini ifoda etmas ekan, u holda o'z ma'nosini yo'qotadi. Och va to'q, rangli va bo'yoq surtmalari ma'lum bir buyum shakliga va ob'ektga tegishli bo'lsagina, materiallilik, ranglar uyg'unligi va kolorit yaratilgan bo'ladi.

Ochiq havoda manzarani tasvirlash jarayonida har bir yosh rassom yuqorida bildirilgan fikrlarni o'z amaliy faoliyatida samarali foydalansa ko'zlagan maqsadiga albatta erishadi.

Natyurmort ishlash jarayonida old qatorda joylashgan jismlar chiziqli ishlovi aniqroq va zichroq, bo'yoqlar esa quyuq va yorqinroq bo'ladi. Nisbatan uzoqdagi tasvir yumshoq va ochroq shtrixlanadi, bo'yoqlar esa suyuqroq va xiraroq qilib beriladi.

Surat tekisligida tasvirlanayotgan buyumlarning materialliligi dastavval yorug'-soya xususiyati bilan ko'rsatiladi. Turli materiallardan tashkil topgan buyumlar tuplami o'ziga xos yorug'-soya xususiyatlariga ega bo'ladi. Sharsimon shaklidagi gipsli jismlar yorug'ligi yarimsoya, soya, refleksga nafislik va ravonlik bilan o'tib boradi. Buyumning shaklini aniqlashda asosan "blik" - shu'la va "refleks" muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu "qoida" metall jismlarga ham aloqa-dordirligini yodda saqalshimiz zarur. Qalamtasvir yoki rangtasvirda yorug'-soyaning ana shu o'ziga xos qoidasiga qat'iy amal qilinsa jismlarning qanday ashyodan yasalgan ekanligini aniq

bilish, ko'rish mumkin (gipsdan, shishadan, metallardan, yog'ochdan va boshqalardan). Qalamtasvir yoki rangtasvirda ishalshning yana bir muhim shartlari jismlarni satxi, ashyo xususiyatini xaqqoniy tasvirlashda qo'yilmaga mos ravishda ranglar va tus munosabatlarini bera olish hisoblanadi

Rahgtasvir yoki qalamtasvirdagi tus va ranglarning o'zaro farqlari qo'yilmadagi munosabatlarga mos bo'lishi talab etiadi. Bizni o'rab turgan muhitdagi jismlarni materiallik sifatlarini ko'rishda ongimiz faqatgina uning rangi va yorug'-soyasining harakterigagina emas, balki tus va rang munosabatlari (ularning farqlari)ni ham sezish qobiliyatiga egadir. Soya-yorug'lik xolati, rang va tus munosabatlari qo'yilmaning obrazli ko'rinishiga mos bo'lsa, natyurmortdagi buyumlar, yoki manzara ob'ektlarining ko'rinishilaridagi materiallik xususiyatlarini xaqiqatga yaqin holda ko'rsata olishimiz tayin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Azimova B.Z. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1984.
2. Azimova B.Z., Rajapov R., Abdirasilov S.F. Tasviriy san'atga oid atamalarning izohli lug'ati. Toshkent 1994.
3. Boymetov B. Qalamtasvir o'qitishning ilmiy asoslari. Metodik tavsiyalar. Toshkent: 1995.
4. Egamov X. Bo'yoqlar bilan ishlash. - Toshkent: O'qituvchi 1981.
5. G'.M.Abduraxmonov «Rangtasvir va kompozitsiya» T., 1995 y.
6. S. Abdirasilov N.Tolipov «Rangtasvir» T., 2005 y
7. N.N.Volkov «Kompozitsiya v jivopisi» M., 1986 y.
8. N. Abdullaev «San'at tarixi» 1-2 qism T. 2001 y.
9. B. Azimova «Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi» T. 1984 y.
10. S.Abdirasilov, N.Tolipov Rangtasvir Darslik. T. "Innovatsiya-ziyo", 2019
11. Xalilov R. "Jivopis" Izdatelstvo «Navruz» 2013
12. Abduraxmonov G'.M Kompozitsiya asoslari «Iqtisod-moliya»,Toshkent, 2008.
13. «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Res'ublikasining qonuni. 2020 yil
14. Abdirasilov S.Tolipov N. "Rangtasvir" O'quv qo'llanma, T. 2005. "Bilim"
15. Sultonov X. "Rangtasvir" (grizaylda ishlash) metodik qo'llanma TDPU rizografida-2014.